

XIXASR QORAQALPOQMUMTOZLIRIKASINING NAZARIY OMILLARI

Tokimbetova Gulbaxor Abatbaeva,

Qoraqalpoq davlat universiteti, Qoraqalpoq adabiyoti kafedrasi dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr qoraqalpoq adabiyoti shoirlar ijodi buyicha tekstologik va tarixiy-filologik tadqiqotlar va adabiy aloqalar, ijodiy ta'sir bilan bog'liq bir qator ilmiy masalalar talqin etiladi. XIX asr qoraqalpoq lirikasi badiiy-estetik ahamiyati hozirgi adabiyotshunoslik ilmining mavjud yutuqlari asosida Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq, O'tesh shoir ijodi misolida tadqiq qilingan. Shuningdek, XIX asr qoraqalpoq lirikasi xalq og'zaki ijodi hamda XIV–XVIII asrlar qoraqalpoq jirov-shoirlari faoliyati va ijodiy merosi bilan aloqadorlikda munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: davr lirikasi, poeziya, tekstologik, tarixiy-filologik, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, janr, shakl va mazmun, poema, badiyat, ijodiy individuallik, doston, to'lg'ov, an'ana va dastur.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИРИКИ XIX ВЕКА

Токимбетова Гулбахор Абатбаева,

Каракалпакский государственный университет, доцент кафедры каракалпакской литературы, (phd)

Аннотация: В данной статье осмыслен ряд научных вопросов, связанных с текстологическими и историко-филологическими исследованиями и литературными связями, творческим влиянием на творчество поэтов каракалпакской литературы XIX века. Художественно-эстетическое значение каракалпакской лирики XIX века исследовано на основе современных достижений литературоведческой науки на примере творчества поэтов Кунходжи, Ажиниёза, Бердаха, Утеша. Кроме того, каракалпакская лирика XIX века связана с народным устным творчеством, деятельностью и творческим наследием каракалпакских поэтов XIV-XVIII веков.

Ключевые слова: лирика периода, поэзия, текстологические, историко-филологические, идеально-художественные особенности, жанр, форма и сожержание, стихотворение, искусство, творческая индивидуальность, эпопея, наполненность, традиция и программа.

THEORETICAL FACTORS OF CLASSICAL LYRICS OF THE 19th CENTURY

Tokymbetova G.A,

Ph.D., docent of the Department. Karakalpak literature, KSU named after Berdak

Abstract: This article comprehends a number of scientific issues related to textual and historical - philological research and literary connections, the creative influence on the work of poets of Karakalpak literature of the 19th century. The artistic and aesthetic significance of Karakalpak lyrics of the 19th century is studied on the basis of modern achievements of literary science using the example of the works of poets Kunhodzhi, Ajiniyoz, Berdakh, Utesh. In addition, Karakalpak lyrics of the 19th century are associated with folk oral creative heritage of Karakalpak poets of the 14-18th centuries.

Key words: lyrical period, poetry, textological, historical-philological, ideological and artistic peculiarities, genre, form and content, poetry, art, creative individuality, epic, completeness, tradition and program.

XIX asr qoraqalpoq poeziyasini xalq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tarixidan ayri holda o'rganish mumkin emas. Chunki, yuqorida qayd etganimizdek, bu davr poeziyasi, asosan, jamiyat siyosiy jarayonlari tasviriga bag'ishlangan. Davr lirkasida ixtirob va zamonadan nolish yetakchi mavzu bo'lgan. Shuningdek, XIX asr qoraqalpoq adabiyoti tarixida ayni davr muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq va O'tesh kabi adabiyot namoyandalari katta maydoga chiqdilar. Ular yaratgan adabiy meroslar yozma adabiyotning eng yaxshi namunalari sifatida e'tirof etildi. Mazkur shoirlar ijodi buyicha tekstologik va tarixiy-filologik tadqiqotlar olib borilgan holda munosib baho berildi.

Xalq boshidan kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayon, tabiiyki, uning madaniy-adabiy hayotida ham o'z izini qoldiradi. Bu jihatdan, birinchidan, qoraqalpoq adabiyotshunosligi ilmida kam o'rganilgan. Xususan, XIX asr qoraqalpoq adabiyoti lirk Janrlari g'oyaviy-badiiy xususiyatlari yetarli tadqiq etilmagan. Ikkinchidan, bu davr adabiyotiga xos masalalarni tasvirlagan Kunxoja, Ajiniyoz, Berdaq va O'tesh asarlari qoraqalpoq xalqining XIX asrdagi tarixiy sharoit badiiy in'ikosi hisoblanadi. Zero, mazkur ijodkorlar asarlarida tarixiy asr ahvoli yorqin aks ettirildi. Shuningdek, bu asr xalq tarixidagi eng qiyin davr bo'lish bilan birga demokratik g'oyalar rivojlangan, milliy ozodlik kurashlarga to'liq davr hisoblanadi. Bundan tashqari, adabiy aloqalar va ijodiy ta'sir bilan bog'liq bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu xususida, N.Dauqarayev, I.Sag'itov, M.Nurmuhamedov, N.Japaqov, A.Karimov, B.Ismailov, H.Hamidov, A.Paxratdinov, A.Murtazayev, K.Mambetov, A.Pirnazarov, Q.Bayniyazov, B.Qalimbetov, B.Qurbanbayev, K.Qurambayev, Q.Jarimbetov, I.Uteuliyev, B.Genjemuratov, S.Matekeyev, Q.Turdibayevlar singari olimlarning ilmiy tadqiqotlarini etirof etish mumkin. Mazkur ilmiy izlanishlarda XIX asr qoraqalpoq adabiyoti taraqqiyot bosqichlari, shoirlarning ijodiy individualligi va badiiy mahorati kabi masalar ilmiy asoslanadi. Xususan, professor Q.Jarimbetov tadqiqotida XIX asr qoraqalpoq lirkasi janriy xususiyatlari va tasniflanib, shakl va mazmun jihatdan guruhlarga ajratib o'rganiladi. Shu davr ijodkorlari lirkasida, asosan, zamondan nolish mavzusiga bee'tibor bo'limganligi qator misollar asosida tahlil qilinadi [Jarimbetov, 2004:97].

N.Dauqarayev izlanishlarida Berdaq ijodi shoir yashagan davr tarixiy-siyosiy, madaniy-iqtisodiy hayoti bilan aloqadorlikda o'rganilgan. "Berdaq poeziyasining asosiy motivi – qoraqalpoq xalqi ijtimoiy hayotini tasvirlash, mashaqqatli turmushini aks ettirish", - deb belgilaydi. Shuningdek, bunday ruhdagi asarlar sirasiga "Bo'lgan emas", "Bu yil", "Ko'rindi", "Teskari qaytgan", "Soliq", "Zamonda", "Yaxshiroq", "Menga kerak", "Xalq uchun", "Yoz kelarmu?", "Ho'kizim", "Chig'irim", "Olti qiz", "Qush", "Hojam", "To'yda" she'rlarini kiritadi. Shoirlarning "Kelin", "O'ylanma" she'rlari hamda "Axmoq podsho" poemasini xotin-qizlar ozodligi, jamiyatdagi o'rni tasviriga bag'ishlangan asarlar sifatida baholaydi. Bu borada "Berdaq xotin-qizlar ozodligi, ularning erkaklar bilan teng huquqli ekanligini ta'kidlaydi. Bu esa o'z navbatida shoirlarning yuksak insonparvar shoir ekanligini ko'rsatadi" [Jarimbetov, 2004:129] – degan xulosaga keladi. Tadqiqotning "Berdaq poemalari" bo'limida shoirlarning "Shajara", "Xorazm", "Amangeldi", "Aydos biy", "Ernazar biy", "Axmoq podsho" poemalari tahlil qilgan holda har bir poemaning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi. Xususan, "Shajara" asari "Chingizzonning dunyoga kelishi bilan bog'liq voqealarga bag'ishlangan birinchi hamda qoraqalpoq xalqining kelib chiqishi, urug'larga bo'linishi haqidagi afsonalardan iborat ikkinchi bo'limga ajratiladi. N.Dauqarayev "Axmoq podsho" asari yuzasidan munosabat bildirib: "mazkur poema teran mazmuni, g'oyasi jihatidan jahon adabiyoti durdonalari qatoriga qo'shishga munosib. Asar tili, badiyati, mazmuni, g'oyasi bo'yicha

qoraqlapaq adabiyotida unga teng keladigan asar yo’q... Berdaq zamonida, ya’ni XIX asr Sharq ijodkorlarining hech biri bunday asarga qo’l urib, tavakkal qilmagan. Unga o’xshash asar yaratgan emaski, Berdaqning buyukligi, ayni shunda” [Davqarayev, 1979:146] - deya ta’rif beradi.

Berdaq ijodini zamondosh shoirlari bilan qiyoslagan holda uning ijodiga xos bo’lgan to’rt xususiyatni kuzatdik:

1. Mehnatkash xalq mashaqqatli turmushi, dardu hasratlari, orzuarmonlari, ozodlik uchun kurashlari tasviri shoir she’riyatining yetakchi mavzusini tashkil etadi.

2. Berdaq asarlari qahramonlari – mehnatkash xalq vakillari hamda xalq ichidan yetishib chiqqan ozodlik orzusidagi kurashuvchilar.

3. Berdaq asarlari mazmuniadolat va haqiqatparvarlik, keljakka ishonch, umuminsoniylik, xalqchil-demokratik g’oyalar bilan sug’orilgan.

4. Berdaq asarlarining aksariyati xalqi og’zaki ijodining boy ana’analariga asoslangan” [Davqarayev, 1979:151].

Ijtimoiy tengsizlik,adolatsizliklar natijasida yuzaga kelgan xalq qo’zg’olonlari qoraqlapoqlar tarixida katta ahamiyatga ega. Birinchidan, qoraqlapoq, o’zbek, qozoq, turkman xalqlari do’stligi tufayli qiyin vaziyatlarda doim birga bo’lgan. Ikkinchidan, ular qoraqlapoq yerlarida ko’b millatli davlat uchun kurashga hamisha kamarbasta harakat qilgan. Qoraqlapoqlar qisqa vaqt ichida itoatkorlikda o’tgan hayotni obod turmushga aylantirmoqchi bo’ladi, pul-tovar aloqalarin tuzatadi va iqtisodiy vaziyatlarni feodallik bozor aloqalari darajasiga ko’taradi [Jarimbetov, 2004:97].

XIX asr shoirlari ijodini kuzatganimizda, ular bir qadar demokratik g’oyalarga yo’g’rilganligini ko’ramiz. Ijodkorlar o’tkir qalamlari bilan xalq ijtimoiy hayoti, shu davr voqeligini adabiyotda aks ettirdi. Berdaq shoir ijodini tarixiy aspektida tadqiq qilgan olim M.Tileumuratov: “Berdaq merosi, yozma va boshqa materiallar asosida puxta taqqoslab ko’rish tarixshunos olimlarga avval bo’lmagan XVII-XVIII asr voqealarining sirini bir qancha oydinlashtiradi” [Kollektiv, 1987:180], deb yozadi. Olimning bu fikrlari XIX asr adabiyoti tarixini o’rganishda muhim vosita hisoblanadi. Berdaqning har bir she’ri qoraqlapoq xalqining siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy turmushi bilan aloqada bo’lgan. XIX asrda feodallik jamiyatini yuqori qatlamiga mansub kuchli manfaatdorlik, moddiy boylikka intilish, umuminsoniy tartiblardan chekinish singari salbiy holatlar asrlar davomida patriarcharlik tizimida yashab kelayotgan qoraqlapoqlarga ibrat bo’lgan qadriyatlar, dasturlar, tartiblarini bo’lib chiqara boshlagan. Bunday holatlar Berdaqning “Aqibet” (“Oqibat”) she’rida quyidagicha tasvirlanadi:

Zaman neshik zaman boldi?

Aqyrgy bolg’ay aqibet.

Kewillerge qayg’yi toldi,

Qayg’i tarqag’ay aqibet.

Áy doslar tardur zaman,

Bastag’i bul kúnler jaman,

Tas burshaqlı qara duman,

Aqırı bolg’ay aqibet [Berdaq, 1997:68].

Shoir shu va boshqa she’rlarida jamiyat qatlamlarining zo’ravonlikka asoslangan munosabati, mulk egalarining haqiqiy qiyofasini mohirona tasvirlagan. Mazkur satrlardaadolatsizliklar, inson huquqlari jamiyat tuzumi, ijtimoiy hayot ko’rinishlar aks etadi. XIX asr haqiqatan ham qoraqlapoq xalqi hayotida tarixiy voqealarga boy davr bo’ldi. Bu davrda rus istilosiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari avj ola boshladi. Turkiston hududida mavjud gazeta-jurnallar keng tarqalishi natijasida, qoraqlapoq xalqi

keng miqyosda madaniy hayat oqimiga kirib keldi. Sho'ir shu va boshqa she'rlarida jamiyat qatlamlarining zo'ravonlikka asoslangan munosabati, mult egalarining haqiqiy qiyofasini mohirona tasvirlagan. Mazkur satrlardaadolatsizliklar, inson huquqlari jamiyat tuzumi, ijtimoiy hayat ko'rinishlar aks etadi. XIX asr haqiqatan ham qoraqalpoq xalqi hayatida tarixiy voqealarga boy davr bo'lidi. Bu davrda rus istilosiga qarshi milliyozodlik harakatlari avj ola boshladi. Turkiston hududida mavjud gazeta-jurnallar keng tarqalishi natijasida, qoraqalpoq xalqi keng miqyosda madaniy hayat oqimiga kirib keldi.

XIX asr qoraqalpoq adabiyoti xalq ijtimoiy-siyosiy ahvoli, madaniy hayoti tasvirida folklor san'ati o'rniga rang-barang janrlardagi yozma adabiyot shakllandi. Bu esa o'z navbatida, hayatni ijtimoiy munosabatlar bilangina emas, balki qab tug'yoni bilan tasvirlash imkoniyati vujudga keldi. Bu borada, albatta, lirik janrlar har taraflama rivoj topdi. Qoraqalpoq og'zaki ijodining qator janrlari: doston, to'lg'ov, shuningdek, an'ana va dasturlarda inson istaklarini ifodalavchi she'rlar, qayg'u va istirob kabi tuyg'ular xalq dardi sifatida talqin qilindi. XIX asrga kelib badiiy ijoddagi bu xususiyatlar xalq merosiga aylangan holda mazkur davrda ijod qilgan shoirlar poeziyasida individual lirik sub'ekt orqali berildi. Bu xususida adabiyotshunos olim, professor Q.Jarimbetov "Ijodiy individuallikka xos lirik xususiyatlar (individual lirik qahramon, lirik xarakter, lirik syujet, lirik konflikt, hissiy ta'sirchanlik va h.k.) XIX asar qoraqalpoq mumtoz lirkasida butun murakkabligini bilan namoyon bo'lidi" [Jarimbetov, 2004:26], – deya ta'kidlaydi. Shuningdek, olimning o'z xulosalarida XIX asrda lirik janrlar yuzasidan hozirgacha aniq xulosalar yuqligi, shuningdek, bu davrda lirik janrlarining vujudga kelishi va taraqqiyotiga yetarli ahamiyat berilmaganini e'tirof etadi. Ҳозирги даврга қадар бўлган қорақалпоқ мумтоз адабиёти ҳар хил аспектларда тадқиқ қилинган ҳолда адабий меросимизнинг ўзига хос хусусиятлари аниқланди.

XIX asr qoraqalpoq lirkasi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab o'rganila boshladi. Davr lirkasi dastlabki tadqiqotlarda g'oyaviy-tematik jihatdan o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida, XIX asr lirkasida ko'pincha ijtimoiy-siyosiy mazmun yetakchilik qilgani ma'lum bo'ladi. Shuningdek, yaratilgan tadqiqotlarda har bir ijodkorning individual xususiyatlari o'zining ilmiy asosini topgan.

XIX asr qoraqalpoq lirkasi badiiy-estetik ahamiyati hozirgi adabiyotshunoslik ilmining mavjud yutuqlariga asosida Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq, O'tesh shoir ijodi misolida tadqiq qilingan. Shuningdek, XIX asr qoraqalpoq lirkasi xalq og'zaki ijodi hamda XIV–XVIII asrlar qoraqalpoq jirov-shoirlari faoliyati va ijodiy merosi bilan aloqadorlikda munosabat bildirilgan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

Бердақ. Сайланды шығармалары. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1997. 68-б.

Дәүқараев Н. Революцияға шекемги қарақалпақ әдебияты тарийхының очерклери. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1961.

Жәримбетов К. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлері хэм раўажланыў тарийхы. Нөкис, «Билим», 2004.

Коллектив. Бердақ ҳақында сөз. Әдебий критикалық мақалалар. «Өз дәүирииниң жылнамашысы». Нөкис, «Қарақалпақстан», 1987. 180-б.

Нурмухamedov M. Каракалпакская поэзия. Ташкент-1977. Бердах-великий поэт каракалпакского народа. Ташкент-1977.

Сағыйтов И. Сахра бўлбили. Нөкис-1974. Қарақалпақ халқының уллы демократ шайыры. Нөкис-1977.

XIX asr Qoraqalpoq mumtoz lirkasining nazariy omillari